



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 21 sahifa.
2026-yil mart*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

XODIMLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTI, KORPORATIV MADANIYAT VA MEHNAT UNUMDORLIGI O'RTASIDAGI UZVIY BOG'LIQLIKNI CHUQUR TAHLIL QILISH.....	8
Shoabdurashidova Mahina Jaxongir qizi, Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ESG TAMOYILLARI INTEGRATSIYASI ORQALI KORXONALAR BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASH.....	15
Jolg'ashova Nozima Mansurovna, T.D. Mamatkulov	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ESG TAMOYILLARI INTEGRATSIYASI ORQALI KORXONALAR BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASH

Jolg'ashova Nozima Mansurovna

Termiz davlat universiteti
Iqtisodiyot ta'lim yo'nalishi 2-kurs I 124-guruh talabasi

Ilmiy rahbar:

T.D. Mamatkulov

Termiz davlat universiteti
Iqtisodiyot kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida ESG tamoyillarini korxonalar faoliyatiga integratsiyalashning barqaror iqtisodiy rivojlanishga ta'siri tadqiq etilgan. ESG omillarining raqamli boshqaruv va monitoring tizimlari bilan uyg'unligi korxonalarning moliyaviy barqarorligi, investitsion jozibadorligi hamda uzoq muddatli qiymat yaratish salohiyatini oshiruvchi muhim omil sifatida asoslab berilgan. Shuningdek, ESG ko'rsatkichlarini raqamli tizimlar orqali samarali joriy etishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, ESG integratsiyasi, barqaror rivojlanish, korxona samaradorligi, yashil moliya.

Abstract: This article examines the impact of integrating ESG principles into corporate activities within the context of the digital economy on sustainable economic development. It substantiates that the alignment of ESG factors with digital management and monitoring systems is a key driver of enhancing financial stability, investment attractiveness, and long-term value creation potential of enterprises. The study also develops scientific and practical recommendations for the effective implementation of ESG indicators through digital systems.

Key words: digital economy, ESG integration, sustainable development, enterprise efficiency, green finance.

Аннотация: В данной статье исследуется влияние интеграции принципов ESG в деятельность предприятий в условиях цифровой экономики на устойчивое экономическое развитие. Обосновано, что гармонизация факторов ESG с цифровыми системами управления и мониторинга является важным фактором повышения финансовой устойчивости предприятий, их инвестиционной привлекательности и потенциала создания долгосрочной стоимости. Также разработаны научно-практические рекомендации по эффективному внедрению ESG-показателей посредством цифровых систем.

Ключевые слова: цифровая экономика, интеграция ESG, устойчивое развитие, эффективность предприятия, зеленые финансы.

KIRISH

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning jadallashuvi global iqtisodiy tizimda barqaror rivojlanish tamoyillarini yangicha mazmunda talqin etishni taqozo etmoqda. Endilikda iqtisodiy o'sish nafaqat moliyaviy natijalar bilan, balki ekologik xavfsizlik, ijtimoiy mas'uliyat va korporativ boshqaruv sifati bilan uyg'un holda baholanmoqda.



Ayniqsa, raqamli texnologiyalar — katta ma'lumotlar (Big Data), sun'iy intellekt, raqamli monitoring hamda avtomatlashtirilgan hisobot tizimlari — iqtisodiy faoliyatning shaffofligi va hisobdorligini oshirib, barqaror rivojlanish mezonlarini aniq o'lchash imkonini bermoqda. Shu nuqtai nazardan, ESG konsepsiyasi raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashning tizimli va integratsiyalashgan modeli sifatida shakllanmoqda.

ESG tamoyillari mohiyatan korxona faoliyatini faqat foyda maksimallashtirish doirasidan chiqarib, uzoq muddatli qiymat yaratish konsepsiyasiga yo'naltiradi. Raqamli transformatsiya sharoitida ushbu tamoyillar resurslardan oqilona foydalanish, uglerod izini kamaytirish, ijtimoiy muhitni yaxshilash hamda boshqaruv jarayonlarini shaffof va ma'lumotlarga asoslangan holda tashkil etish orqali amaliy ifodasini topadi. Natijada ESG va raqamli iqtisodiyot integratsiyasi korxonalarning operatsion samaradorligini oshirish, investitsion jozibadorligini kuchaytirish hamda risklarni tizimli boshqarish imkonini berib, iqtisodiy rivojlanishning sifat jihatidan yangi bosqichiga o'tishga xizmat qiladi.

Shu bois, mamlakatimizda ham raqamli iqtisodiyot sharoitida ESG tamoyillarini korxonalar faoliyatiga integratsiyalash uchun zarur institutsional va huquqiy zamin yaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida raqamli infratuzilmani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan [1]. Jumladan, mobil aloqa tarmog'ini 4G va 5G texnologiyalari asosida rivojlantirish, "bulutli" hisoblashlar negizida ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash markazlarini kengaytirish, iqtisodiyotning real sektorida robotlashtirilgan sanoatni rivojlantirish va joriy etish, shuningdek, korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarni Internet jahon axborot tarmog'i orqali sotish bozorlarini kengaytirish kabi yo'nalishlar shular jumlasidandir.

Ta'kidlash joizki, raqamli monitoring tizimlari, ekologik ko'rsatkichlarni avtomatlashtirilgan hisobga olish, energiya samaradorligini boshqarish platformalari hamda elektron hisobot mexanizmlari orqali real sektor korxonalarida ekologik samaradorlikni oshirish, ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish va korporativ boshqaruv sifatini yaxshilash imkoniyatlari kengaymoqda. Natijada ESG tamoyillarining raqamli vositalar bilan uyg'unligi korxonalar barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashning samarali amaliy mexanizmi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur tadqiqotning yuqoridagi masalalarga bag'ishlangani uning bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va barqaror rivojlanish konsepsiyasining chuqurlashuvi ESG yondashuvini zamonaviy iqtisodiy nazariyaning muhim komponentiga aylantirdi. ESG tamoyillarining nazariy asoslari barqaror rivojlanish paradigmasi hamda korporativ ijtimoiy mas'uliyat (CSR) evolyutsiyasi bilan chambarchas bog'liq.

R.E. Freeman tomonidan ishlab chiqilgan "Stakeholder theory"ga ko'ra, korxona faoliyati nafaqat aksiyadorlar, balki manfaatdor tomonlar — jamiyat, xodimlar va atrof-muhit manfaatlarini ham inobatga olishi zarur [2]. Ushbu yondashuv keyinchalik ESG konsepsiyasining ijtimoiy va boshqaruv komponentlari shakllanishiga metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

M.E. Porter va M.R. Kramer tadqiqotlarida "shared value" konsepsiyasi ilgari surilib, biznes va jamiyat manfaatlarini integratsiyalash orqali uzoq muddatli iqtisodiy ustunlikka erishish mumkinligi asoslab berilgan [3]. Mazkur yondashuv ESG tamoyillarining strategik xarakterga ega ekanini ko'rsatadi.

G.L. Clark, A. Feiner va M. Viehs tomonidan olib borilgan keng ko'lamli empirik tahlilda ESG omillarining korxonalar moliyaviy natijalari va kapital qiymatiga ijobiy ta'siri aniqlangan [4]. Mualliflar barqarorlik omillarini investitsion riskni kamaytiruvchi hamda operatsion samaradorlikni oshiruvchi muhim omil sifatida talqin qiladilar.

K. Schwab "To'rtinchi sanoat inqilobi" konsepsiyasida raqamli texnologiyalar (AI, IoT, blokcheyn) ishlab chiqarish va boshqaruv tizimlarini tubdan o'zgartirishini ta'kidlaydi [5]. Mazkur texnologiyalar ESG ko'rsatkichlarini real vaqt rejimida monitoring qilish, energiya samaradorligini boshqarish va shaffof hisobot yuritish imkonini beradi.

R.G. Eccles va S. Klimenko tadqiqotlariga ko'ra, ESG ko'rsatkichlarini strategik boshqaruv tizimiga integratsiyalagan kompaniyalar uzoq muddatli barqarorlik va investitsion jozibadorlik jihatidan ustunlikka ega [6]. Ular ESGni korporativ boshqaruvning risklarni kamaytiruvchi hamda innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi mexanizmi sifatida baholaydilar.

Shu bilan birga, J. Bebbington va J. Unerman barqarorlik hisobotlari hamda raqamli axborot ochiqligi korporativ shaffoflikni oshirish orqali kapital bozorida ishonchni mustahkamlashini asoslab berganlar [7]. Bu esa raqamli iqtisodiyot sharoitida ESG hisobotlarining institutsional ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ESG va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik ko'p omilli xarakterga ega bo'lib, raqamli innovatsiyalar ushbu jarayonda katalizator vazifasini bajaradi. Biroq mavjud ilmiy ishlarda aynan



raqamli iqtisodiyot sharoitida ESG integratsiyasining korxona barqaror rivojlanishiga ta'sir mexanizmlari yetarli darajada tizimli modellashtirilmaganligi kuzatiladi. Mazkur tadqiqot aynan shu masalalarni chuqurroq yoritishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda raqamli iqtisodiyot sharoitida ESG tamoyillari integratsiyasi orqali korxonalarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini o'rganish maqsadida kompleks va tizimli tahlil, taqqoslama yondashuv, iqtisodiy-statistik baholash hamda konseptual modellashtirish usullaridan foydalanildi.

Shuningdek, tadqiqot mavzusi doirasida mavjud nazariy qarashlar atroficha o'rganilib, ular asosida mualliflik yondashuvlari bayon etildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ESG konsepsiyasi iqtisodiy subyekt faoliyatini baholashning kengaytirilgan va ko'p o'lchovli modelini ifodalaydi. Mazkur yondashuv korxona samaradorligini nafaqat moliyaviy natijalar, balki uning ekologik mas'uliyati, ijtimoiy barqarorligi va boshqaruv sifati bilan uyg'un holda tahlil qilishni nazarda tutadi. Ayniqsa, raqamli transformatsiya jarayonlari ESG ko'rsatkichlarini aniqlik, shaffoflik va tezkorlik asosida o'lchash imkonini kengaytirib, ularni korporativ strategiyaning ajralmas qismiga aylantirmoqda.

Birinchidan, "Environmental" (E) komponenti raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonaning resurslardan foydalanish samaradorligini real vaqt rejimida monitoring qilish, energiya sarfini optimallashtirish, chiqindilarni boshqarish hamda uglerod izini kamaytirish bo'yicha raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq. IoT sensorlari, aqlli energiya boshqaruv tizimlari va ekologik ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan yig'ish platformalari ekologik samaradorlikni oshirishning muhim vositasiga aylanmoqda.

Ikkinchidan, "Social" (S) yo'nalishi raqamli boshqaruv muhitida mehnat munosabatlarini takomillashtirish, xodimlar huquqlarini himoya qilish, masofaviy mehnat infratuzilmasini rivojlantirish hamda manfaatdor tomonlar bilan interaktiv kommunikatsiyani yo'lga qo'yish orqali namoyon bo'ladi. Raqamli platformalar ijtimoiy mas'uliyat ko'rsatkichlarini tizimli baholash va ijtimoiy kapitalni mustahkamlash imkonini beradi.

Uchinchidan, "Governance" (G) elementi korporativ boshqaruvning raqamli transformatsiyasi bilan chambarchas bog'liq. Elektron audit tizimlari, blokcheyn asosidagi shaffoflik mexanizmlari, raqamli risk-menejment hamda avtomatlashtirilgan hisobot standartlari boshqaruv samaradorligini oshirib, korruption xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Mazkur uch o'lchovning integratsiyalashgan holda joriy etilishi korxonada uzoq muddatli qiymat yaratish, investitsion jozibadorlikni oshirish va operatsion risklarni kamaytirish orqali barqaror iqtisodiy rivojlanish modelini shakllantiradi. Shu bois, raqamli iqtisodiyot sharoitida ESG nafaqat hisobot mezonlari, balki korxonaning strategik transformatsiyasi va barqaror o'sish yo'nalishini belgilovchi tizimli boshqaruv konsepsiyasi sifatida namoyon bo'ladi.

Barqaror iqtisodiy rivojlanish masalasi jahon iqtisodiyotida uzoq yillardan buyon markaziy o'rin egallab kelmoqda. Neoklassik o'sish modeli vakillari iqtisodiy o'sish manbaini kapital jamg'arilishi va texnologik taraqqiyot bilan izohlasa, endogen o'sish nazariyasi tarafdorlari bilim, innovatsiya va inson kapitalini asosiy determinant sifatida talqin etadilar [8]. Institutsional iqtisodiyot yondashuvi esa iqtisodiy samaradorlikni boshqaruv sifati va institutsional muhit bilan bog'laydi. Shu tariqa, iqtisodiy o'sish nafaqat miqdoriy kengayish, balki sifat jihatidan yangilanish jarayoni sifatida qaraladi [9,10].

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ushbu nazariy qarashlar yangi mazmun kasb etmoqda. Innovatsiyalar, bilimga asoslangan ishlab chiqarish va samarali institutlar raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda iqtisodiy rivojlanishning asosiy omiliga aylanmoqda. ESG konsepsiyasi aynan shu nazariy yo'nalishlarning amaliy integratsiyasini ifodalaydi. Chunki ESG tamoyillari inson kapitalini rivojlantirish (S), institutsional va korporativ boshqaruv sifatini oshirish (G) hamda ekologik resurslardan samarali foydalanish (E) orqali iqtisodiy o'sishning sifat parametrlarini belgilaydi.

Shu ma'noda, ESG raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy rivojlanishning miqdoriy ko'rsatkichlarini sifat mezonlari bilan boyituvchi tizimli mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. U korxonalarda innovatsion faollikni rag'batlantiradi, boshqaruvni ma'lumotlarga asoslangan holda tashkil etadi hamda resurs samaradorligini oshirish orqali uzoq muddatli barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ESG tamoyillarini joriy etish iqtisodiy o'sishga to'g'ridan-to'g'ri emas, balki innovatsiya va samaradorlik omillari orqali bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, ESGning ta'sir mexanizmlarini tahlil qilish maqsadida quyidagi tuzilmaviy bog'lanish ishlab chiqildi.



1-rasm. ESGning barqaror iqtisodiy o'sishga ta'siri zanjiri

Mazkur tizimli zanjir tadqiqot doirasida ESG tamoyillarining raqamli iqtisodiyot instrumentlari bilan uyg'unlashuvi natijasida yuzaga keladigan multiplikativ ta'sir mexanizmini ifodalaydi. Ushbu modelda "ESG – innovatsiya – ishlab chiqarish samaradorligi – barqaror iqtisodiy rivojlanish" o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqligi konseptual asosda ochib beriladi.


Birinchi bosqichda ESG tamoyillarining korxona faoliyatiga integratsiyalashuvi ekologik resurs tejamkorligini ta'minlash, ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish hamda shaffof boshqaruvni rivojlantirishga xizmat qiladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ushbu jarayon "data-driven" boshqaruv, raqamli monitoring va ESG ko'rsatkichlarini avtomatlashtirilgan baholash tizimlari orqali qo'llab-quvvatlanadi.

Ikkinchi bosqichda ESG tamoyillari innovatsion faollikni rag'batlantiradi. Ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, energiya samaradorligini oshirish va raqamli ishlab chiqarish tizimlarini tatbiq etish korxonada texnologik yangilanish jarayonini jadallashtiradi.

Uchinchi bosqichda innovatsion transformatsiya ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga olib keladi. Bu jarayon resurs sarfining kamayishi, xarajatlarning optimallashtirilishi hamda qo'shimcha qiymat yaratish darajasining ortishi orqali namoyon bo'ladi.

Yakuniy bosqichda esa ishlab chiqarish samaradorligining ortishi barqaror iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarida — uzoq muddatli rentabellik, investitsion jozibadorlik va institutsional barqarorlikda — o'z aksini topadi.

Yuqoridagi yondashuvlar, jumladan, endogen o'sish nazariyasi (innovatsiya va bilim omili), institutsional iqtisodiyot (boshqaruv sifati), barqaror rivojlanish paradigmasi hamda raqamli transformatsiya konsepsiyasi, shuningdek ESG boshqaruv modeliga tayanib, "Korxonalarning raqamli-ESG-barqaror iqtisodiy rivojlanish modeli"ni quyidagicha ifodalash maqsadga muvofiqdir.

2-rasm. Korxonalarning raqamli-ESG-barqaror iqtisodiy rivojlanish modeli¹

1 Muallif ishlanmasi.



Taklif etilgan raqamli-ESG-barqaror iqtisodiy rivojlanish modeli korxona darajasida barqaror o'sishni ta'minlashning tizimli va ko'p bosqichli mexanizmini ifodalaydi. Modelning mantiqiy tuzilishi shuni ko'rsatadiki, raqamli infratuzilma hamda ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimlari ESG tamoyillarini amaliy jihatdan integratsiya qilish uchun zarur institutsional va texnologik zamin yaratadi. Ya'ni, raqamli transformatsiya ESG ko'rsatkichlarini aniqlik, tezkorlik va shaffoflik asosida boshqarish imkonini beruvchi katalizator vazifasini bajaradi.

Modelning integratsion bosqichida ESG komponentlarining (E, S, G) o'zaro uyg'unligi korxona faoliyatining ekologik samaradorligi, ijtimoiy barqarorligi va boshqaruv sifati o'rtasida muvozanatni ta'minlaydi. Ushbu muvozanat innovatsion jarayonlarni rag'batlantiruvchi ichki impulsni shakllantiradi. Transformatsion bosqichda esa yashil va raqamli innovatsiyalar operatsion samaradorlikni oshiradi, xarajatlarni optimallashtiradi hamda ESG yo'naltirilgan investitsiyalar oqimini kuchaytiradi.

Natijaviy bosqichda ishlab chiqarish samaradorligining ortishi uzoq muddatli rentabellik, investitsion jozibadorlik va umumiy omillar unumdorligining (TFP) o'sishida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, model barqaror iqtisodiy rivojlanishni bir martalik natija sifatida emas, balki raqamli texnologiyalar va ESG integratsiyasi asosida shakllanadigan uzluksiz transformatsion jarayon sifatida talqin etadi.

Umuman olganda, mazkur modelning ilmiy ahamiyati shundaki, unda ESG mustaqil ijtimoiy-ekologik standart sifatida emas, balki raqamli iqtisodiyot sharoitida korxona samaradorligini oshiruvchi strategik boshqaruv vositasi sifatida talqin etiladi. Shu orqali u korxonalarning uzoq muddatli barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib, raqamli iqtisodiyot sharoitida ESG tamoyillari integratsiyasi orqali korxonalar barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Korxonalarda ESG tamoyillarini alohida ijtimoiy loyiha yoki qo'shimcha hisobot elementi sifatida emas, balki yagona raqamli boshqaruv tizimining tarkibiy qismi sifatida joriy etish maqsadga muvofiq. Buning uchun ESG indikatorlari strategik rejalashtirish, risk-menejment, ichki audit va operatsion boshqaruv modullari bilan integratsiyalashgan raqamli platformalarda aks ettirilishi zarur.

2. Korxonalarning barqaror rivojlanish darajasini aniqlash maqsadida ESG va raqamli transformatsiya ko'rsatkichlarini birlashtiruvchi integrallashgan baholash tizimini ishlab chiqish lozim.

3. Yashil va raqamli innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun soliq imtiyozlari, grant dasturlari hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan samarali foydalanish tavsiya etiladi.

4. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning moliyaviy ta'minoti ESGga yo'naltirilgan moliyaviy instrumentlarni keng joriy etishni talab qiladi. Xususan, "green bonds", "sustainability-linked loans" hamda ESG reytingiga asoslangan kreditlash mexanizmlarini rivojlantirish dolzarb hisoblanadi.

5. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayverlaridan biri — yuqori malakali inson kapitalidir. ESG tamoyillarini samarali joriy etish uchun xodimlarda ekologik madaniyat, ijtimoiy mas'uliyat va raqamli savodxonlikni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

6. ESG tamoyillarining samarali ishlashi shaffoflik va hisobdorlik darajasiga bevosita bog'liq. Shu bois korxonalar ESG faoliyatini xalqaro standartlarga mos ravishda raqamli formatda e'lon qilib borishlari lozim.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi chora-tadbirlar ESG tamoyillarini raqamli iqtisodiyot instrumentlari bilan uyg'unlashtirish orqali korxonalar barqaror iqtisodiy rivojlanishining tizimli modelini shakllantirishga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar ESGni operatsion darajada samarali boshqarish imkonini bersa, ESG esa innovatsion va institutsional samaradorlikni oshirish orqali uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning sifat parametrlarini belgilaydi. Shu bois raqamli-ESG integratsiyasini korxonalar rivojlanishining strategik ustuni sifatida qarash ularning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6079-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5030957?ONDATE=12.08.2021>
2. Strategic Management: A Stakeholder Approach / R. Edward Freeman. – Boston: Pitman, 1984. – 276 p.
3. Creating Shared Value / Michael E. Porter, Mark R. Kramer // Harvard Business Review. – 2011. – Vol. 89, No. 1/2. – P. 62–77.
4. From the Stockholder to the Stakeholder: How Sustainability Can Drive Financial Outperformance / Gordon L. Clark, Andreas Feiner, Michael Viehs. – Oxford: University of Oxford, 2015. – 52 p.
5. The Fourth Industrial Revolution / Klaus Schwab. – Geneva: World Economic Forum, 2016. – 172 p.
6. The Investor Revolution / Robert G. Eccles, Svetlana Klimenko // Harvard Business Review. – 2019. – Vol. 97, No. 3. – P. 106–116.



7. Sustainability Accounting and Accountability / Jan Bebbington, Jeffrey Unerman. – London: Routledge, 2018. – 624 p.
8. A Contribution to the Theory of Economic Growth / Robert M. Solow // Quarterly Journal of Economics. – 1956. – Vol. 70, No. 1. – P. 65–94.
9. Institutions, Institutional Change and Economic Performance / Douglass C. North. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 152 p.
10. The Competitive Advantage of Nations / Michael E. Porter. – New York: Free Press, 1990. – 855 p.
11. Lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
